



XIX–XX ASR O'ZBEK AN'ANAVIY LIBOSLARIDA JIYAKNING BADIY XUSUSIYATLARI.

Gulchehra Erkinovna Abrarova

*O'zbekiston amaliy san'at va hunarmandchilik tarixi davlat muzeyi katta
ilmiy xodimi*

ANNOTATSIYA.(o'zbekcha): Mazkur maqolada XIX-XX asrlarga oid o'zbek an'anaviy liboslarining bezagi bo'lgan jiyak muzey kolleksiyalari asosida tadqiq etiladi. Unda jiyakning tayyorlanish usullari, naqshinkor bezatilishi va liboslarda qo'llanilishi ko'rib chiqiladi. O'zbekiston amaliy san'at va hunarmandchilik tarixi davlat muzeyi kolleksiyasi materiallari misolida O'zbekiston badiiy to'qimachiligi an'analaridagi jiyakning texnologik, badiiy hamda hududiy xususiyatlari ochib beriladi.

Kalit so'zlar: ko'ylak, chopon, kamzol, zex, sherozi, jiyakdo'kon, xandasaviy, jonona, jonona, islimi, bodom, irmoq, lyureks.

АННОТАЦИЯ. (на русском языке)

В статье на основе музейных коллекций исследуется джияк как декоративно-конструктивный элемент традиционной одежды узбеков XIX–XX веков. Рассматриваются особенности его изготовления, орнаментального оформления и применения в костюме. На материалах коллекции Государственного музея прикладного искусства и истории ремесленничества Узбекистана выявляются технологические, художественные и региональные особенности джияка в традициях художественного текстиля Узбекистана.

Ключевые слова: жияк, куйлак, чопон, камзол, зех, шерози, жиякдоукон, хандасавий, жонона, кушжонона, ислими, бодом, ирмок, люрекс.

ABSTRACT.(english)

The article examines the jiyak as a decorative and constructive element of traditional Uzbek clothing of the 19th–20th centuries based on museum collections.



The study considers the features of its production, ornamental design, and use in traditional costume. Based on the collection materials of the State Museum of Applied Arts and History of Crafts of Uzbekistan, the technological, artistic, and regional features of jiyak within the traditions of Uzbek textile art are identified.

Keywords: *Jiyak, kuylak, chopon, kamzol, zex, sherozi, djiyak dukon, xandasaviy, jonona, kushjonona, islimi, bodom, irmok, lyureks.*

O'zbek an'anaviy libosining muhim tarkibiy qismi hisoblangan jiyak xalqimizning tarixiy-madaniy merosi, estetik qarashlari va hunarmandchilik an'alarini o'zida mujassam etgan bo'lib, XIX-XX asrlarga oid muzey kolleksiyalari asosida o'rganish muhim ilmiy ahamiyatga ega.

O'zbek amaliy san'atining qo'l kashtachiligiga oid jiyak kiyim-kechak va turli maishiy buyumlarning chet qismini bezash hamda mustahkamlash maqsadida tor tasmasimon to'qima yoki kashtali bezak turi hisoblanadi. «Jiyak» atamasining kelib chiqishi turkiy tillardagi «chet», «qirra», «hoshiya» ma'nolarini ifodalovchi qadimiy leksik qatlam bilan bog'lanadi. Dastlab buyumning cheti yoki hoshiyasini anglatgan bo'lib, keyinchalik ushbu qismni bezash va mustahkamlash uchun qo'llaniladigan tor tasmasimon bezak nomiga aylangan. Buxoro va Samarqandda «zex», Surxondaryoda esa «sherozi» va boshqa mahalliy nomlar bilan tanilgan. Kashtali bezak tayyorlanish usuliga ko'ra, bir necha turga bo'linadi: qo'lda to'qish usulida tayyorlangan oddiy jiyak; bir necha ustalar tomonidan yaratilgan murakkab, rang-barang va naqshdor jiyak; maxsus dastgohda tayyorlangan jiyak (jiyakdo'kon); shuningdek, naqshlarni matoga bevosita kashta qilish orqali ishlangan jiyaklardir. Jiyakning naqsh bezagi an'anaviy, handasaviy, islmiy motivlarning badiiy uyg'unlashuvidan tashkil topgan. Ayrim naqsh kompozitsiyalarida turmush buyumlari, mehnat qurollari, turli buyumlar va yozuv elementlarining tasvirlari ham uchraydi.¹

¹ 222- bet. «O'zbekiston hunarmandchiligi va amaliy san'ati». 1-tom. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi". Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent. 2016 y.



Etnografik manbalarga ko'ra, O'zbekistonning ayrim hududlarida ushbu kashtali tasma kiyim egasining yoshi, jinsi va ijtimoiy mavqeini aks ettiruvchi bezagi hisoblangan. Ustalar rang, material va naqsh yechimini tanlash orqali kiyim egasining go'zallik haqidagi tasavvurlari, maqomi va madaniy mansubligi haqidagi tushunchalarni ifoda etganlar. Bu xususiyat ayniqsa Samarqand va Urgut an'anaviy liboslarida yaqqol namoyon bo'lib, yoqa shaklidagi o'zgarishlar ayolning ijtimoiy maqomini ifoda etgan. Samarqand viloyatining Urgut tumanida mahalliy aholi orasida birinchi farzandni beshikka solish marosimi munosabati bilan qizlar ko'ylagidagi gorizontal yoqa shakli ayollar kiyimiga xos yoqa shakli bilan almashtirilgan. Yoqa shaklining o'zgarishi birinchi onalik davri, ya'ni ayolning onalar ijtimoiy-yosh guruhiga o'tishi bilan bog'liq bo'lib, ushbu an'ana qadimiy urf-odatlarining saqlanib qolgan shakllaridan birini namoyon etadi.²

Erkaklar va qizlar ko'ylagining gorizontal yoqalari odatda jiyak bilan bezatilgan. Erkaklar kiyimida bu bezak sodda va tor shaklda bo'lgan bo'lsa, qizlar ko'ylaklarida kengroq va naqshinkor ko'rinishda ishlangan. «Zex» - beshta alohida tasmani to'qish va ularni birlashtirish orqali tayyorlangan bo'lib, markaziy qismi oq naqshli qora tasma, yon qismlari esa ko'k va qora tasmalardan tashkil topgan. Qizlar kiyimidagi o'zaro kesishuvchi chiziqlar asosida tikilgan jiyak naqshlari «jonona» va «qo'shjonona» nomlari XIX asr oxirida Samarqand shahri va viloyati hududlarida keng tarqalgan. XIX asr oxirida jiyak tayyorlash texnologiyasida muhim o'zgarishlar kuzatilib, an'anaviy o'rama tasmalar o'rnini maxsus sodda dastgohda tayyorlangan to'qima naqshli qoqma jiyaklar egallay boshladi. Bu usul jiyaklarning naqsh yechimi va bezak imkoniyatlarini yanada kengaytirdi. Undagi naqshlar tasma asosi o'tkazilgan maxsus taxtachalar yoki karton bo'laklarini muayyan tartibda harakatlantirish orqali hosil qilingan. Keyinchalik to'qima usulida yaratilgan naqshlar o'rnini to'qima tasma yuzasiga xochsimon usulida tikilgan kashta naqshlari egallagan. To'qima va kashta naqshlarining turlari va kompozitsion yechimlari yanada xilma-xillashdi.

² 21-bet. O.A.Suxareva. «Istoriya sredneaziatskogo kostyuma». Samarkand (2-ya polovina XIX –nachalo XX vv.) Akademii nauk SSSR. Institut etnografii im. N.N. Mikluxo-Maklaya. Izdatelstva «Nauka». Moskva.1982 y



O'zbekiston amaliy san'ati va hunarmandchilik tarixi davlat muzeyi kolleksiyasida saqlanayotgan 1970 yilda Samarqandda tayyorlangan «Jiyak» ashyosi ayollar an'anaviy kiyimlarini bezashga mo'ljallangan bo'lib, o'zining badiiy yechimi va ishlanish mahorati bilan ajralib turadi. Mazkur dekorativ tasma yuzasida rangli ipak iplardan foydalangan holda bajarilgan gul-nabobot naqshlari bilan bezatilgan. Naqsh kompozitsiyasidagi o'simliksimon motivlar va rang uyg'unligi Samarqand hunarmandchilik an'analariga xos xususiyatlarni aks ettiradi. Jiyak chetiga tikilgan qora popuklar buyumning badiiy yaxlitligini ta'minlab, uning dekorativ ifodasini kuchaytirgan. Mazkur namuna jiyakning an'anaviy kiyim bezagidagi o'rni hamda XX asr Samarqand hunarmandchilik an'analarini o'rganishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Surxondaryoda «sherozi» nomi bilan tanilgan jiyak mahalliy hunarmandchilik an'analariga xos bo'lib, yorqin ranglari va o'ziga xos naqsh kompozitsiyalari bilan ajralib turadi. Surxondaryo an'anaviy liboslarida -jiyak— chopon, kamzol, ko'ylak va bosh kiyimlarni badiiy bezatishda keng qo'llanilgan. Ayollar ko'ylaklarida yoqa qismi vertikal kesim shaklida ishlanib, ushbu qism bo'ylab gul-nabotot naqshi bilan bezatilgan jiyak qo'llanilgan. Shahrisabz, Qarshi va Surxondaryo hududlarida jiyaklar asosan ipak iplardan tayyorlangan bo'lib, ularning naqsh kompozitsiyalarida xochsimon shakldagi bezak motivlari keng uchraydi.³

O'zbekiston amaliy san'ati va hunarmandchilik tarixi davlat muzeyi kolleksiyasida saqlanayotgan «qo'l kashtachiligi» kolleksiyasiga oid 1980 yillarda Surxondaryoda yaratilgan «jiyak» namunasi naqshdor shaklida ishlangan hamda uning chet qismlari popuklar bilan bezatilgan. Uning tashqi yuzasi «iroqi» texnikasi asosida turli rangdagi iplar va lyureksdan foydalangan holda xochsimon usulda bezatilgan. An'anaviy kashta usullari va yangi materiallarning uyg'unligi buyumning badiiy xususiyatlarini boyitgan. Muzey kolleksiyasida saqlanayotgan ushbu ashyo Surxondaryo qo'l kashtachiligi an'anasida nafaqat amaliy vazifani

³ 243- bet. «Libos tarixi». D.Raxmatullayeva, U.Xodjayeva, F.Ataxanova. Toshkent. 2015 y.



bajarganini, balki libosning badiiy bezagini shakllantiruvchi muhim omil bo'lganini ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, muzey kolleksiyalarida saqlanayotgan jiyak namunalarini o'rganish ularning tayyorlanish texnologiyasi, naqsh kompozitsiyasi va hududiy xususiyatlarini aniqlash imkonini berdi. Tahlil natijalari Samarqand va Surxondaryo jiyaklari mahalliy hunarmandchilik an'analari hamda an'anaviy o'zbek kiyimi bezak san'atining o'ziga xos jihatlarini aks ettirishini ko'rsatdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. «O'zbekiston hunarmandchiligi va amaliy san'ati». 1-tom. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent. 2016 yil.
2. Suxareva O.A. «Istoriya sredneaziatskogo kostyuma». N.N. Mikluxo-Maklay nomli etnografiya instituti. "Nauka" nashriyoti. Moskva. 1982 y.
3. «Libos tarixi». D.Raxmatullayeva, U.Xodjayeva, F.Ataxanova. Toshkent. 2015 y.